

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XI RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

IYUN, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 11-son (iyun, 2026-yil).- 73 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 10-iyun

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

MUNDARIJA

QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

Mamataliev Ikrom, Shadmanov Djamaliddin, Hakimova Iroda
TURLI AGROTEKNIK OMILLARNING G'O'ZA NAVLARIDA BIR KO'SAKDAGI PAXTA VAZNIGA
TA'SIRI 5-9

Raxmonqulova Lola, Umurzakov Elmurod
SHAFTOLI BITINING LOVIYANI O'SISHI RIVOJLANISHI VA MAXSULDORLIGIGA
TA'SIRI..... 10-13

Norov Ilxom, Amanova Maxfurat
KUNJUT(SESAMUM INDICUM.L) NAV VA NAMUNALARINING DON HOSILDORLIK
KO'RSATKICHIGA 1000 DONA DON VAZNINI TA'SIRI 14-17

FILOLOGIYA FANLARI

Isanova Feruza
O'ZBEK VA INGLIZ HUQUQIY MATNLARIDA SEMANTIK MUVOFIQLIK: QIYOSIY
TAHLIL 18-21

Yo'ldoshova Jamila, Xidirova Munajat
QASHQADARYO VOHASIDA UCHRAYDIGAN VESPULA (THOMSON, 1869) AVLODI
TURLARINING MORFOLOGIYASI 22-26

Mustofakulova Maftuna
ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA KONNOTATIV MA'NONING TADQIQI 27-31

Mahkamova Sevinch
RAQAMLI MUHITDA MUALLIFLIK HUQUQI BUZILISHINING ASOSIY SHAKLLARI VA ULARNING
MEDIA MAKONDAGI NAMOYON BO'LISHI 32-34

Рустамова Тамилла
СТРУКТУРНЫЕ И ОРИЕНТАЦИОННЫЕ МЕТАФОРЫ В РЕПРЕЗЕНТАЦИИ НЕГАТИВНЫХ
ЭМОЦИЙ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ 35-38

Балясникова Марина
ОТ ПРИЗНАКА К СИМВОЛУ: ФУНКЦИОНАЛЬНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ
АНГЛИЙСКИХ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ С СУФФИКСОМ -LY 39-42

YURIDIK FANLAR

Eraliyeva Malika
GERMANIYA VA O'ZBEKISTONDA IJTIMOYIY HIMOYA TIZIMINING RIVOJLANISH
TENDENSIYALARI: QIYOSIY-HUQUQIY TAHLIL..... 43-46

PEDAGOGIKA FANLARI

Gulamov Shavkat
FALSAFIY DEBATLAR ORQALI IJTIMOYIY MUAMMOLARNI TAHLIL QILISH 47-52

Mustafoyeva Noila
METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING LEGAL WRITING COMPETENCE IN
LEGAL EDUCATION 53-57

Darmonova Adolat
BARQAROR TA'LIM MODELLARI ASOSIDA UMUMIY PEDAGOGIKANI RAQAMLI
INTEGRATSIYADA O'QITISHNING ADAPTIV TEXNOLOGIYALARINI
TAKOMILLASHTIRISH 58-60

Sariboyeva Shaxnoza
IJTIMOIY TARMOQLARNING YOSHLAR AXLOQIY DUNYOQARASHIGA TA'SIRI.....61-66

PSIXOLOGIYA FANLARI

Xalikova Guli
O'YIN VA INTERFAOL METODLAR ORQALI TIL O'RGANISH: PSIXOLOGIK VA TEXNOLOGIK
YONDASHUV67-72

FILOLOGIYA FANLARI

O'ZBEK VA INGLIZ HUQUQIY MATNLARIDA SEMANTIK MUVOFIQLIK:
QIYOSIY TAHLIL**Isanova Feruza Tulqinovna**

Toshkent davlat agrar universiteti, o'qituvchi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: isanovaferuza2909@gmail.comORCID: <https://orcid.org/0009-0008-0281-7977>

Annotatsiya. Mazkur tezisda o'zbek va ingliz huquqiy matnlarida semantik muvofiqlik masalalari qiyosiy tahlil asosida o'rganilgan. Tadqiqotda huquqiy terminlar, normativ iboralar hamda huquqiy konseptlarning ikki til tizimidagi ifodalanish xususiyatlari tahlil qilinib, ularning ekvivalentlik darajalari aniqlangan. Huquqiy tarjimada yuzaga keladigan semantik nomutanosibliklarning asosiy sabablari ochib berilgan hamda funksional-semantik yondashuvning afzalliklari asoslangan. Tadqiqot natijasida semantik muvofiqlikning to'liq, qisman va nomuvofiq darajalari tasniflangan, huquqiy matnlarni tarjima qilishda konseptual va funksional ekvivalentlikni uyg'unlashtirish zarurligi isbotlangan. Olingan natijalar huquqiy tarjima amaliyotini takomillashtirish, tarjimonlar tayyorlash hamda qiyosiy huquqiy tilshunoslik tadqiqotlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: huquqiy matn, semantik muvofiqlik, huquqiy tarjima, ekvivalentlik, huquqiy terminologiya, qiyosiy tilshunoslik, normativ-huquqiy hujjatlar, funksional ekvivalentlik, konseptual moslik, yuridik diskurs, tarjimashunoslik, huquqiy til.

SEMANTIC EQUIVALENCE IN UZBEK AND ENGLISH LEGAL TEXTS: A
COMPARATIVE ANALYSIS**Isanova Feruza Tulqinovna**

Tashkent State Agrarian University, teacher

Independent researcher, Uzbekistan State University of World Languages

Annotation. This thesis examines the issues of semantic equivalence in Uzbek and English legal texts through a comparative analysis. The study analyzes the characteristics of legal terms, normative expressions, and legal concepts as they are represented in the two language systems and identifies their levels of equivalence. The main causes of semantic discrepancies arising in legal translation are revealed, and the advantages of the functional-semantic approach are substantiated. As a result of the research, semantic equivalence is classified into three categories: full equivalence, partial equivalence, and non-equivalence. The study demonstrates the necessity of integrating conceptual and functional equivalence in the translation of legal texts. The findings contribute significantly to the improvement of legal translation practice, the training of legal translators, and the advancement of comparative legal linguistics research.

Keywords: legal text, semantic equivalence, legal translation, equivalence, legal terminology, comparative linguistics, normative legal documents, functional equivalence, conceptual correspondence, legal discourse, translation studies, legal language.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i11/n04>**Kirish.**

Globalashuv sharoitida xalqaro huquqqa oid matnlar, xususan konvensiyalar, shartnomalar, deklaratsiyalar, protokollar va xalqaro tashkilotlar hujjatlarining tarjimasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunday matnlarni o'zbek tiliga sifatli tarjima qilish

faqat leksik o'g'irish emas, balki mazmun, normativ kuch va huquqiy natijani to'g'ri uzatish vazifasini ham bajaradi [6, 11-b.].

Ingliz huquqiy tizimi asosan "common law" an'alariga tayangan holda shakllangan bo'lsa, o'zbek huquqiy tizimi roman-german huquq oilasi tamoyillari asosida rivojlangan. Shu sababli ikki til huquqiy terminologiyasida sezilarli semantik va pragmatik tafovutlar mavjud. Ayrim terminlarning to'liq ekvivalenti mavjud emasligi esa tarjima jarayonida qator muammolarni yuzaga keltiradi [7, 26-b.].

Mavzuning dolzarbligi.

Huquqiy matnlar tilida eng kichik semantik tafovut ham normativ mazmunning buzilishiga, huquqiy talqinning noto'g'ri anglanishiga va amaliyotda xatolarga olib kelishi mumkin. O'zbek va ingliz huquqiy tizimlari turli tarixiy, madaniy va institutsional asosga ega bo'lgani sababli, ularning matnlarida qo'llaniladigan terminlar, qolip iboralar va modal konstruktsiyalar har doim ham to'liq bir-biriga mos kelmaydi. Shu bois huquqiy tarjimada semantik muvofiqlikni ta'minlash nafaqat tilshunoslik, balki huquqiy aniqlik masalasi sifatida ham dolzarbdir. Muammo shundan iboratki, so'zma-so'z tarjima ko'pincha tashqi shaklni saqlaydi, biroq normativ ma'noni, huquqiy kuchni va funksional yuklamani to'liq uzata olmaydi [3].

Maqsad va vazifalar.

Tadqiqotning maqsadi — o'zbek va ingliz huquqiy matnlarida semantik muvofiqlikning shakllanish mexanizmlarini aniqlash, tarjimada yuzaga keladigan semantik nomutanosiblik sabablarini ko'rsatish hamda ularni bartaraf etishning ilmiy-amaliy asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: huquqiy matnlarning semantik xususiyatlarini tahlil qilish; o'zbek va ingliz huquqiy terminlari va qolip iboralarini qiyoslash; ekvivalentlik darajalarini aniqlash; tarjimada semantik og'ishlarga sabab bo'ladigan omillarni ajratib ko'rsatish; huquqiy tarjimada funksional va konseptual moslikni ta'minlash bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti va metodlari.

Tadqiqot obyekti sifatida o'zbek va ingliz tilidagi huquqiy matnlar, xususan qonunlar, normativ-huquqiy hujjatlar, shartnomalar va rasmiy huquqiy bayonlar tanlandi. Tadqiqot predmeti esa mazkur matnlarda ifodalangan semantik birliklarning o'zaro muvofiqligi, ya'ni mazmuniy ekvivalentlik darajasi hisoblanadi.

Tadqiqotda qiyosiy-tipologik, semantik, komponentli tahlil, kontekstual tahlil va tarjima ekvivalentligini baholash metodlaridan foydalanildi. Mazkur metodlar huquqiy birliklarning lug'aviy ma'nosi bilan normativ funksiyasi o'rtasidagi munosabatni aniqlash, shuningdek, bir tilga xos bo'lgan huquqiy konseptning boshqa tilda qanday ifodalanishini tahlil qilish imkonini berdi [1; 5].

Asosiy natijalar.

Tadqiqot natijasida shunday xulosaga kelindiki, o'zbek va ingliz huquqiy matnlarida semantik muvofiqlik uch darajada namoyon bo'ladi: to'liq muvofiqlik, qisman muvofiqlik va muvofiq kelmaslik.

To'liq muvofiqlik odatda umumhuquqiy terminlarda kuzatiladi; qisman muvofiqlik esa huquqiy institutlar bir-biriga yaqin bo'lsa-da, ularning konseptual hajmi to'liq teng

bo'lmaganda yuzaga keladi; muvofiq kelmaslik esa milliy huquqiy tizimga xos tushunchalarda yaqqol namoyon bo'ladi [2; 3].

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, "shall", "hereby", "liable", "witnesseth" kabi ingliz huquqiy birliklari ko'pincha oddiy leksik ma'noda emas, balki normativ va protsessual funksiyada ishlatiladi. O'zbek huquqiy matnlarida esa "majburlanadi", "mazkur", "javobgar bo'ladi", "tasdiqlaydi" kabi birliklar ana shu funksional yuklamani yetkazishga xizmat qiladi. Biroq bu birliklar har doim ham mutlaq ekvivalent bo'la olmaydi; shuning uchun tarjimada ma'no, vazifa va huquqiy ta'sir birgalikda hisobga olinishi kerak [4].

Shuningdek, tadqiqotda huquqiy matnlarning semantik aniqligi ko'pincha uch omilga bog'liqligi aniqlandi: terminning tizimiy o'rni, normativ matnning konteksti va huquqiy konseptning milliy xususiyati. Demak, samarali tarjima literal emas, balki funksional-semantik moslik tamoyiliga asoslanishi lozim. Bu yondashuv matnning huquqiy kuchini saqlab qolishga yordam beradi [1; 5].

Ilmiy yangilik.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilarda namoyon bo'ladi: birinchidan, o'zbek va ingliz huquqiy matnlarida semantik muvofiqlik uch bosqichli model asosida tasniflandi; ikkinchidan, huquqiy tarjimada semantik nomutanosiblikka olib keluvchi omillar tizimli ravishda ajratildi va ularning tarjima sifatiga ta'siri ko'rsatib berildi; uchinchidan, huquqiy matnlarni tarjima qilishda konseptual-ekvivalentlik va funksional-ekvivalentlikni birgalikda qo'llash zarurligi asoslandi; to'rtinchidan, huquqiy tarjimada xatolarning oldini olish uchun terminlarni faqat lug'aviy emas, balki normativ va institutsional kontekstda talqin qilish mezonlari ishlab chiqildi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, uning natijalari huquqiy tarjima darslarida, tarjimonlar tayyorlashda, qonun hujjatlari loyihalarini ikki tilda ishlab chiqishda hamda qiyosiy huquqiy-tilshunoslik tadqiqotlarida foydalanilishi mumkin.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek va ingliz huquqiy matnlarida semantik muvofiqlik tarjimaning eng muhim mezonlaridan biri bo'lib, u faqat so'zlar darajasida emas, balki konsept, funksiya va huquqiy ta'sir darajasida ham ta'minlanishi zarur. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, huquqiy matn tarjimasida to'g'ri yo'l — literal moslik emas, balki mazmuniy, funksional va normativ muvofiqlikdir. Shu asosda, huquqiy tarjimada semantik aniqlikni oshirish uchun qiyosiy tahlil, terminologik moslik va kontekstual yondashuv bir butun tizim sifatida qo'llanishi lozim [1; 2; 3].

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Newmark, P. *A Textbook of Translation*. — New York: Prentice-Hall International, 1988.
2. Šarčević, S. *New Approach to Legal Translation*. — The Hague: Kluwer Law International, 1997.
3. Alcaraz Varo, E., Hughes, B. *Legal Translation Explained*. — Manchester: St. Jerome Publishing, 2002.
4. Cao, D. *Translating Law*. — Clevedon: Multilingual Matters, 2007.
5. Tiersma, P. M. *Legal Language*. — Chicago: University of Chicago Press, 1999.
6. Isanova, F. (2026). XALQARO HUQUQ TERMINLARINI INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH MUAMMOLARI. *Humansciences: Journal of Humanities*, 2(5), 11-14. <https://doi.org/10.47390/hum-i5v2y2026/n02>

7. Isanova, F. (2026). O'ZBEK VA INGLIZ HUQUQIY TERMINLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI. YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR, 2(9), 26-29. <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i9/n05>
8. Isanova, F. (2026). O'ZBEK TILIDA XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID LEKSIK BIRLIKLARNING TARIXIY KELIB CHIQISHI VA SHAKLLANISHI. Lingvosciences.Uz: Lingvistika Va Madaniyatshunoslik Fanlarining Dolzarb Masalalari, 2(3), 13-18. <https://doi.org/10.47390/LS2025V2I3Y2026N02>
9. Mahmudov, N., Nurmonov, A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi (sintaksis). — Toshkent: O'qituvchi, 1995.
10. Sayfullayeva, R. R., Mengliyev, B. R., Boqiyeva, G. H., Qurbonova, M. M., Yunusova, Z. Q., Abuzalova, M. Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2010.
11. Xudoyberganova, D. Matnning antroposentrik tadqiqi. — Toshkent: Fan, 2013.
12. Safarov, Sh. Pragmalingvistika. — Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2008.
13. Isanova, F. (2026). O'ZBEK VA INGLIZ HUQUQIY DISKURSIDA MODALLIK IFODASI: QIYOSIY-LINGVISTIK TAHLIL. YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR, 2(10), 62-67. <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i10/n12>
14. Isanova, F. (2026). O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID LEKSIK BIRLIKLARNING MORFOLOGIK TUZILISHI: QIYOSIY TAHLIL. Humansciences: Journal of Humanities, 2(4), 32-41. <https://doi.org/10.47390/hum-i4v2y2026/n06>

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

XI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2026-yil, iyun

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 11-son (iyun, 2026-yil). – 73 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 10-iyun.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.